

УДК 911.52:581(575.1)

Halimova G.S.

BuxDU “*Ekologiya va geografiya*” kafedrasi dotsenti,
g.f.f.d.(PhD)

O‘zbekiston, Buxoro

Adizxonova Z.A.

BuxDU 2-bosqich magistranti

O‘zbekiston, Buxoro

QULJUQTOV TIZMASI O‘SIMLIKLARI VA ULARNING GEOGRAFIK JIHATLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qizilqum cho‘lida joylashgan Quljuqtov tizmasining o‘simlik qoplami va ularning geografik xususiyatlari yoritilgan. Hududning iqlimi, relyefi, tuproq va gidrologik omillarining o‘simliklar xilma-xilligi va tarqalishiga qanday ta’sir qilishi ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot ishi Quljuqtov florasini chuqur ilmiy o‘rganish va muhofaza qilish, barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Quljuqtov, Qizil kitob, flora, saksovul, kovrak, shirach, baliqko‘z.

Halimova G.S.

BukhsU “*Ecology and Geography*” department,
Associate Professor (PhD)

Uzbekistan, Bukhara

Adizkhonova Z.A.

2nd year master's student in Geography at BukhsU

Uzbekistan, Bukhara

ON THE PLANTS OF THE KULJUKTAU RANGE AND THEIR GEOGRAPHICAL ASPECTS

Annotation: This article highlights the vegetation cover of the Kuljuktau Range located in the Kyzylkum Desert and its geographical features. The

influence of climatic, relief, soil, and hydrological factors on the diversity and distribution of plants is examined on a scientific basis. This research contributes to establishing a scientific foundation for the in-depth study, conservation, and sustainable use of the Kuljuktai flora.

Keywords: *Kuljuktai, Red Book, flora, haloxylon, ferula, eremurus ammophilus, climacoptera.*

Qizilqum cho'li bag'rida joylashgan qoldiq va past tog' hisoblangan Quljuqtov tizmasi Buxoro viloyatining shimolida, Navoiy viloyatining janubida, ya'ni chegara qismida joylashgan bo'lib uning eng baland nuqtasi (785 metr) uning g'arbiy qismida joylashgan. Bu tizma o'zining tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari jumladan, o'simlik olami (flora), hayvonot dunyosi (fauna) bilan ajralib turadi.

Tabiatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan o'simliklar qoplami geografik landshaftlarning shakllanishida alohida o'rin tutadi. Har bir hududning iqlim sharoiti, relyef tuzilishi, tuproq tarkibi va gidrologik omillari o'simliklarning xilma-xilligi hamda tarqalish qonuniyatlarini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida yer yuzasida suv oqimiga, bug'lanishiga, tuproqda nam saqlashga, shamol kuchiga va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga ham katta ta'sir qiladi.

Quljuqtov tizmasining o'simlik qoplami ilmiy jihatdan o'rganish bilan Poretskiy A.S., Popov N.V., Larin I.V., Drobov V.P., Zokirov Q.Z., Korovin E.P., Granitov I.I., Melnikova R.D., Xolmatov X.X., Xudoyberdiyev R.X. kabi olimlar shug'ullangan. Jumladan, Qizilqumning tabiiy sharoiti, o'simlik qoplami va ularning ekologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan qator asarlar mavjud. Mazkur asarlar tizma hududida bir necha yillar avval o'sgan va hozirda mavjud bo'lgan o'simliklar turlarini solishtirish imkonini beradi [1].

Quljuqtov tizmasi va unga yondosh hududlarda ayni paytda saksovul (oq, qora), shuvoq, eremurs, yulg'un, illoq, yaltirbosh, ravoch, shirach, selin, cherkez, dereza (oq jangal), yantoq, isiriq, Qizil kitobga kiritilgan o'simliklar ham

mavjud bo‘lib: momiq zo‘rcha, qoldiqtog‘ astragali, ninasimon oqtikan, yuraksimon torol, binafsharang astragal, korolkov shirachi, Turkiston eulofiyasi, Qizilqum kovragi, sarxush bozulbang, vvedenskiy bozulbang va hokazolar uchraydi [5].

Hududda eng ko‘p uchraydigan ayrim o‘simlik turlarining xususiyatlari haqida quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Saksovul (*Haloxylon*) qum-sahro, cho‘l o‘simligidir (1-rasm). Uning o‘shish areali cho‘llar va yarimcho‘llar chegarasi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyoda turkum vakillaridan 3 tur tarqalgan. Qora yoki sho‘rxok saksovul (*Haloxylon aphyllum* (Minkv) Iljin) asosan taqir cho‘llarda, sho‘rlangan qumli va bo‘z tuproqlarda o‘sadi. Tuproqlarni himoyalash, qumlarni to‘xtatish, cho‘l yaylovlarni saqlash kabi cho‘ldagi muhim vazifalarni bajaradi. Tuproqqa talabchan emas, kuchli sho‘rlangan yerlarda ham o‘sadi [3].



1-rasm. Saksovul (*Haloxylon*)

Kovrak (*Ferula*) turkumidan respublikamizda besh turi mavjud. Bular orasida eng keng tarqalgani ferula diversivittitadir (2-rasm). Respublikamizning Toshkent, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyati Quljuqtov tizmasi va unga tutash hududlarda hamda Qoraqalpog‘iston respublikasining qumli cho‘llarida, adirlar, tog‘lar va tog‘oldi yalanliklarida, soz tuproqli yerlarda o‘sadi. Kovrak yelim-

smolasi xalq tabobatida o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi, tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladigan va ko'pgina davlatlar farmakologiyasiga kiritilgan [2].



2-rasm. Kovrak

(*Ferula*)

Shirach (*Eremurus ammophilus*) ko'p yillik o'simlik. Qizilqum, Qizilqumning qoya-tog'li qismlarida, qumli cho'llarda shuningdek Quljuqtov past tog'larida o'sadi. Foydalanilishi: Bezak, dorivor, bo'yoq olinadigan va yem-xashak sifatida ishlatiladi [4].



3-rasm. Shirach (*Eremurus ammophilus*)

Baliqko‘z (*Climacoptera*) bir yillik o‘simlik bo‘lib O‘zbekiston bo‘yicha 9 dan ortiq turi mavjud. Turlar asosan Qizilqum, Qizilqum qoya-tog‘li hududlarida jumladan Quljuqtov past tog‘larida, Quyi-Zarafshon, Qarshi-Qarnabcho‘llarida keng tarqalgan bo‘lib sho‘rxok joylarda o‘sadi. Ayrim turlaridan yem-xashak maqsadida foydalaniladi ba‘zi turlari esa umuman foydalanishga yaroqsiz [4].



4-rasm. Baliqko‘z (*Climacoptera*)

Xulosa qilib aytganda, Quljuqtov tizmasi florasining o‘rganilishi nafaqat tabiiy-geografik, balki ekologik, xo‘jalik va landshaft nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida bu hududning biologik resurslarni saqlash va ularni barqaror foydalanish masalalarida ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esanov.H.Q Janubiy-g‘arbiy Qizilqum o‘simliklarini o‘rganish xususida// Namangan ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2020-yil 9-son)
2. Hamroyeva M.K, Ashurova L “Kovrak o‘simligining dorivor xususiyatlari” International scientific and practical conference “science,

education and innovatsion: International of natural sciences and ecological aspects of food products” jurnal N 23-24, 2025. -B 37-38

3. Qayimov A.K, Berdiyev E.T, Hamroyev H.F “Dendrologiya” – Toshkent, 2015. 228-229 b.
4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф. и др. Кадастр флоры Узбекистана: Бухарская область. – Ташкент: ИПТД «О'qituvchi», 2020. - 128 с.: (+40 с. вкл.).
5. O‘lkashunoslik atlası. Buxoro viloyati. – T.: “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi, 2014. 26-27 b.